



## **QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI HOKIMINING QARORI**

---

2025-yil 15-fevral

60-4-58-Q/25

Qamashi tuman hokimligi

---

**Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldaggi  
“2025-yilda Qashqadaryo viloyatida Olimpiya va Paralimpiya harakati,  
sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib  
chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni  
amalga oshirish to‘g‘risida” 63-4-0-Q/25-son qarori ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi ijrosini hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldaggi “2025-yilda Qashqadaryo viloyatida Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida” 63-4-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minalash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

### **QAROR QILAMAN:**

1. Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldaggi “2025-yilda Qashqadaryo viloyatida Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida” 63-4-0-Q/25-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish yuzasidan Qashqadaryo viloyatida 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda - yo‘l xaritasi) **1- ilovaga;**

Qashqadaryo viloyatida 2025-yilda erishiladigan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha erishiladigan maqsadli ko‘rsatkichlar **2- ilovaga;**

2025-yilda hududiy sport federatsiyalari (uyushmalari) bilan “**sport qabullari**” o’tkazish bo‘yicha reja-jadvali **3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi** inobatga olinsin.

**3.** Tuman hokimining o‘rinbosari **B.Haydarov** tumandagi sport maktablari bilan birgalikda:

jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug‘ullanadigan aholi ulushi joriy yilda kamida **38 foizga** yetkazish;

tuman yoshlarining sportga qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida tajribali va taniqli sportchilar ishtirokida motivatsion uchrashuvlar tashkil etish tizimi yo‘lga qo‘yish;

Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rayotgan sportchilarning ijtimoiy-maishiy va moddiy ta’mnotin yaxshilash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirib borish;

olimpiya sport turlari bo‘yicha sport federatsiyalari (uyushmalari)ning tuman bo‘linmalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy va moddiy- texnik bazasini mustahkamlash maqsadida ular yirik davlat tashkilotlariga biriktirish;

mahalliy hokimliklar, davlat ishtirokidagi tijorat banklari va korxonalarda jamoaviy sport turlari bo‘yicha sport klublari tashkil etish;

jamoviy sport turlari bo‘yicha mahalliy hokimliklar kesimida “**Hokim kubogi**”, korxona va tashkilotlar kesimida “**Rahbar kubogi**” musobaqalarini o’tkazib borish;

xususiy sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish;

mazkur qarorda va “Yo‘l xaritasi”da ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi **har haftada bir marotaba** tuman hokimligi va sport maktablari ishtirokida muhokama qilish choralarini ko‘rsin.

**4.** Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Rasulov) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va tumanning veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

**5.** Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**6.** Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Haydarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**X.Usmonov**